O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 26 - oktabr 287-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 10 oktabrdagi 502-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi “Aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlash tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 513-sonli qarori asosda qabul qilingan **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 10 oktabrdagi 502-10-0-Q/23-sonli qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6;25-moddlariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 10 oktabrdagi 502-10-0-Q/23-sonli qarori** ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistan Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 30-maydagi 144-sonli Farmoniga muvofiq seysmik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat organlari rahbar kadrlari va xodimlarining “Aholining barcha qatlamlarini zilzilaga tayyorlashga mo‘ljallangan milliy elektron platforma” (keyingi o‘rinlarda - milliy elektron platforma) orqali malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari o‘tkazib borilishi belgilanganligi;

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistan Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 16-maydagi 158-sonli Qarorida

“Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi” doirasida har yili reja-grafik asosida respublikaning barcha hududlaridagi mahallalarda aholi ishtirokida zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘mondonlik-shtab, maxsus-taktik va obyekt o‘quv mashqlari o‘tkazib borilishi nazarda tutilganligi;

Aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari, professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari hamda oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini muammoli - vaziyatli o‘yinlar va mashg‘ulotlarda, milliy elektron platforma orqali, shuningdek, aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlashga mo‘ljallangan mashg‘ulotlari orqali tayyorgarlikdan o‘tkazishi;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholi, shuningdek, respublika ijro etuvchi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning rahbarlari, mas’ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari ishchi-xizmatchilarini yig‘inlar va o‘quv mashqlarida tayyorgarlikdan o‘tkazishi;

respublika ijro etuvchi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning rahbarlari va xodimlari bilan yillik jamlash rejasi asosida, shuningdek, fuqarolar bilan ixtiyoriy ravishda milliy elektron platforma orqali aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlashga mo‘ljallangan masofaviy o‘quv kurslarini tashkil etishi;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O‘zbekistan Respublikasiga tashrif buyurgan turistlarga tegishli qo‘llanmalar tarqatish, maxsus radio va teledasturlarni efirga uzatish, buklet va eslatmalarni tarqatish orqali, shuningdek, milliy elektron platforma va maxsus mobil ilovalardan foydalangan holda tayyorgarlikdan o‘tkazishi;

milliy elektron platformaning o‘quv reja va dasturlariga har uch yilda bir marotaba, sohadagi innovatsion yondashuvlarni inobatga olgan holda o‘zgartirishlar kiritib borishi;

respublika ijro etuvchi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari

hamda boshqa tashkilotlarning aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlash sohasidagi vakolatlari;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari
hamda ommaviy axborot vositalarining aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlash sohasida ishtirok etishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Favfqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i (U.Maxamadjonov) tumandagi barcha bo‘lim va idoralar bilan birgalikda aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlash bo‘yicha milliy elektron platforma orqali malaka oshirish va qayta tayyorlash o‘quv kurslari faoliyatini nazoratga olib, doimiy monitoring yuritilishini;

milliy elektron platforma orqali tayyorgarlikdan o‘tgan fuqarolarning joylarda
o‘tkaziladigan qo‘mondonlik-shtab va maxsus-taktik o‘quv mashqlariga jalb etib borilishini ta’minlasin.

4. Belgilansinki, aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlash tadbirlari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarga har yili ajratiladigan byudjet mablag‘lari doirasida, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov va tuman favqulodda vaziyatlar bo‘lim boshlig‘i U.Maxamadjonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**